

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2018 yil yanvar– avgust holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1747 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarnining ulushi **0,7 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1625 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust Buning natijasida joriy oyida viloyatda 2330 taga ya- yilning boshiga nisbatan qin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan korx-yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 1706 o'tgan yilning shu davriga ta (10,9%) ga nisbatan 790 taga ko'pdir. o'sgan hamda ularning Shuningdek, faoliyati tu- umumiyligi soni 17331 tani gatilgan korxona va tash- tashkil etgan. kilotlarning soni o'tgan yilning Faoliyat ko`rsatayotgan shu davriga nisbatan 23,0 % korxonalar va tashkilotlar- ga kamaygan hamda ularning asosiy ulushi Buxoro ning soni 705 tani tashkil shahrida (32,4 %), G'ijduvon etganligini kuzatish mumkin. (10,5%), Romitan (7,6%) va Buxoro (7,1%) tumanlarida kuzatilmogda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
 va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
<b>Buxoro biloyat buyicha</b>	<b>18207</b>	<b>100,0</b>	<b>17331</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:				
Olot	628	3,5	565	3,3
Buxoro	1357	7,5	1220	7,1
Vobkent	828	4,5	803	4,6
G'ijduvon	1951	10,7	1823	10,5
Kogon	942	5,2	874	5,0
Q'orako'l	932	5,1	886	5,1
Q'orovulbozor	342	1,9	334	1,9
Peshko'	1118	6,1	1084	6,3
Romitan	1356	7,4	1315	7,6
Jondor	1234	6,8	1181	6,8
Shofirkon	1125	6,2	1023	5,9
shaharlar				
Buxoro sh.	5772	31,7	5619	32,4
Kogon sh.	622	3,4	604	3,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,1 % savdoda, 14,3 % sanoatda, 10,4 % qurulishda, 10,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,4 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-avgust holatiga 2330 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 51,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (714 ta), Romitan (241 ta), G'ijduvon (196 ta) va Shofirkon tumanlarda (163 ta) tashkil etilgan. Eng kam Q'orovulbozor (59 ta), Olot (74 ta) hamda Vobkent (95 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (370 ta), sanoatda (346 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (346 ta) va qurilishda (319 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (69 ta), axborot va aloqada (33 ta) hamda tashish va saqlashda (81 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-avgust holati-	2018 yil yanvar-avgust holati-ga.
<b>Jami:</b>	<b>1540</b>	<b>2330</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	321	346
Sanoat	370	346
Qurilish	178	319
Savdo	227	370
Tashish va saqlash	76	81
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	115	179
Axborot va aloqa	27	33
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50	69
Boshqa turlari	176	587

## **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**


2018 yil 1 sentyabr holatiga 14174 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3033 ta, oilaviy korxonalar – 851 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 9925 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 16 tani va boshqalar 349 tani tashkil etadi.




## **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko`satayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 128 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 42 taga yoki 48,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`satayotgan korxonalardan 86 tasi qo'shma korxonalar, 42 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 77 ta (60,1 %), Vobkent tumani 8 ta (6,2 %) va Kogon tumanlari 9 ta (7,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G'ijduvon tumani 2 ta (1,6 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (1,6 %), Shofirkon tumani 2 ta (1,6 %) va Kogon shahri 2 ta (1,6 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'r-sak eng ko'p sanoatda 72 ta (56,2 %), savdoda 19 ta (14,8 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10 ta (7,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (0,8 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 5 ta (3,9 %), va qurilishda 7 ta (5,5 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlashda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 37 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga ko'paygan yoki 3,7 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Turkiya Respublikasi – 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 3 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta va Koreya Respublikasi – 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-avgust holatiga) birlikda**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 14 ta, savdoda 6 ta, qurilishda 4 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta va boshqa faoliyat turlarida 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14048 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 setyabr holatiga qaraganda 11,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4782 tasi (34,0 %) Buxoro shahriga, 1484 tasi (10,6 %) G'ijduvon, 1087 tasi (7,7 %) Romitan, hamda 1004 tasi (7,1 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14048 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3628 tasi (25,8 %) – savdoda, 2440 tasi (17,4 %) - sanoatda, 1788 tasi (12,7 %) - qurilishda, 1675 tasi (12,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1073 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1100 tasi (7,8%) - tashish va saqlashda, 194 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 402 tasi (2,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1748 tasi (12,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariга to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariга to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 2002 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 36,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (641 ta), Romitan (210 ta), G'ijduvon (164 ta) va Shofirkon tumanlarida (136 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (54 ta), Olot (60 ta) hamda Vobkent (77 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (368 ta), sanoatda (345 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (343 ta) va qurilishda (319 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (69 ta), axborot va aloqada (33 ta) hamda tashish va saqlashda (81 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 893 tani tashkil etib, ulardan 851 tasi yoki 95,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'satayotganlarning umumiy soni o'rtacha 34,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 28,2 % yoki 240 tasi sanoat, 31,4 % yoki 267 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,3 % yoki 122 tasi savdo, 13,5 % yoki 115 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 10 tasi qurilish, 0,7 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,4 % yoki 20 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,4 % yoki 63 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi  
Statistika registrlarni yuritish va tizimli  
xizmat ko`rsatish bo'limi.

Nashr uchun mas'ul:  
F.Hakimova  
(065)2238320

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat  
registr (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan